



IJTIMOYIY XIZMATLARNING AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI

Raximov Zafar

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0009-7825-6093

zafarrahimov022@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy xizmatlarning aholi farovonligini ta'minlashdagi rolining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritib berilgan. Ma'lumotlar muallifning kuzatuvlari va adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi farovonligi, xizmatlar sohasi, metodologiya, globallashuv, strategiya, inson salohiyati, ijtimoiy xizmatlar, islohot, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati, barqaror iqtisodiy o'sish.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЛУЖБ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЛАГОПОЛУЧИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Рахимов Зафар

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье освещены теоретические и практические аспекты роли социальных служб в обеспечении благосостояния населения. Информация составлена на основе наблюдений автора и анализа литературы.

Ключевые слова: социально-экономическая политика, благосостояние населения, сфера услуг, методология, глобализация, стратегия, человеческий потенциал, социальные услуги, реформа, социальное обслуживание и сокращение бедности, государственная молодежная политика, устойчивый экономический рост.

THE ROLE OF SOCIAL SERVICES IN ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION

Rakhimov Zafar

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article highlights theoretical and practical aspects of the role of social services in ensuring the well-being of the population. The information is based on the author's observations and analysis of the literature.

Keywords: socio-economic policy, population welfare, services, methodology, globalization, strategy, human potential, social services, reform, social services and poverty reduction, public youth policy, sustainable economic growth.

Kirish.

Ijtimoiy xizmatlar aholi hayotining ajralmas qismi bo'lib, u aholi salomatligi, daromadi, bandligi, hayot kechirish kabi muhim xizmatlarni o'z ichiga oladi. Har bir davlat samarali iqtisodiy rivojlanishi uchun esa ijtimoiy xizmatlarning munosib darajada ta'minlanganligi har bir davlatning asosiy maqsadini belgilab berishi bilan izohlanadi. Shuning uchun jahon mamlakatlarining asosiy maqsadi – aholining farovonligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va inson kapitalini rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlar tizimi aholining turmush darajasini oshirishda, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlanilishi bilan ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning dolzarbligi belgilab beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh olimlar "Xizmatlar sohasi" va "Aholi farovonligi" tushunchalariga bir qator ilmiy qarashlarni bayon qilishgan, bularga: Kotler, Armsrong, Sonders, Vong (1999), Mak-Donald, Peyn (2009), Goyxman (2007), Paul, Samuelson, William (2009) Nordhaus, McConnell (2014), Gregory Mankiw (2014), Abdullayev (2001), Muxammedov (2021), Pardayev (2014), Mirzayev (2022), Galiaxmetova (2015), Yeremina (2017), Tursunov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Abulqosimov, Ashurova (2015): "... aholi o'sish sur'atlariga nisbatan ustuvor ravishda o'sishi ularning milliy iqtisodiyotdagi bandligi tendensiyalariga ham jiddiy ta'sir etib, yangi ish o'rinlarini yaratish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha oqilona va samarali band etish zaruratini keltirib chiqardi".

O'lmasov va Vaxabovlar (2006): "Farovonlik – bu kishilar iste'mol etadigan hayotiy ne'matlar miqdori va sifati, hayot kechirish umumiy shart – sharoitining qandayligini bildiradi" deb, o'qtiradi.

Abduraxmonov (2011) "... mamlakat aholisining o'z ruhiy-fiziologik va aqliy sifatleri bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga (xizmat ko'rsatishga) qodir mehnatga layoqatli qismi hisoblanadi. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirgi paytda ishlamayotgan va ish qidirayotgan mehnatga layoqatli shaxslar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar ham kiritiladi".

Aholi bandligi, ularning yashash sharoitlari farovonlik darajalari bevosita aholining kasbiy yo'nalishlariga ham bog'liqdir. Bu borada ko'plab olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduktsiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar ijtimoiy xizmatlarning aholi farovonligini ta'minlashdagi rolining mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijtimoiy xizmatlar – bu, davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko'rsatiladigan yordam turlari bo'lib, ular insonning normal hayot kechirishiga, salomatligini saqlashga, bilim olishiga, mehnat qilishi yoki dam olishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Ular quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Tibbiy xizmatlar – sog'liqni saqlash muassasalari orqali bemorlarni davolash, profilaktika ishlari olib borish;

Ta'lim xizmatlari – maktabgacha, maktab, o'rta va oliy ta'lim tizimlari orqali bilim berish;

Ijtimoiy himoya – nogironlar, yolg'iz keksalar, kam ta'minlangan oilalar, bolalar uylarini qo'llab-quvvatlash;

Mehnat va bandlik xizmatlari – ish o‘rinlari yaratish, kasbga o‘qitish, bandlikni ta‘minlash;

Madaniy va dam olish xizmatlari – jamoat kutubxonalari, sport inshootlari, san‘at va madaniyat muassasalari orqali aholining madaniy hayotini boyitish.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan biri AQSHda turli ijtimoiy xizmatlar davlat va xususiy sektorlariga bo‘lingan. Aholi bunday xizmatlardan imtiyozli foydalanish uchun arzonlashtirilgan va sug‘urta kompaniyalari tomonidan belgilangan miqdordagi mablag‘larni to‘lab bepul ijtimoiy xizmatlardan foydalanishadi. Masalan: Sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektor asosiy rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik odamlar xususiy sug‘urta orqali xizmat oladi.

Shu bilan birga, sug‘urta yo‘li bilan ijtimoiy xizmatlarni davlat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar asosida uni nazoratga olish va rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Masalan:

1. Medicare – 65 yoshdan oshganlar va nogironlar uchun;
2. Medicaid – daromadi past bo‘lganlar uchun;
3. VA (Veterans Affairs) – harbiy xizmatchilar uchun.

Bunday sug‘urta tizimining qulayliklari va o‘ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Agar har bir kishining o‘zi yoki uning ish beruvchisi o‘zining ishchisini sug‘urta qilishini qulaylik desak, sug‘urtasi bo‘lmaganlar sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda qiynaladi, bu esa muammolarga olib keladi. Shu bilan birga ushbu davlatda tibbiy xizmatlar yuqori texnologiyalarga asoslangan, ammo xarajatlar juda yuqori.

Ijtimoiy xizmatlarining tashkil etilishi bilan ajralib turuvchi yana bir davlatlardan biri – bu, Yevropa davlatlaridir. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida ham aynan ijtimoiy xizmatlardan biri bo‘lgan tibbiy xizmatlarning o‘ziga hosligi mavjud. Masalan:

1. Umumiy sog‘liqni saqlash tizimi (Universal Healthcare):

Aksariyat Yevropa davlatlarida sog‘liqni saqlash **davlat tomonidan moliyalashtiriladi** yoki **majburiy sog‘liqni saqlash sug‘urtasi** orqali amalga oshiriladi.

Har bir fuqaro tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega, odatda bepul yoki arzon narxlarda.

2. Mashhur modellar:

Beveridge modeli (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya): sog‘liqni saqlash xizmatlari to‘liq davlat tomonidan ta‘minlanadi.

Bismarck modeli (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya): majburiy sug‘urta tizimi orqali moliyalashtiriladi, ammo xizmat ko‘rsatuvchilar xususiy bo‘lishi mumkin.

3. Yevropa tizimi sog‘liqni saqlashga kirish imkoniyatini kafolatlaydi, aholining sog‘ligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar (masalan, o‘rtacha umr ko‘rish) AQSHnikiga nisbatan yuqoriroq.

AQSH va Yevropa davlatlarining ijtimoiy xizmatlaridagi farqni taqqoslash maqsadida quyidagi ma‘lumotlar tahlili keltirildi (1-jadval).

1-jadval

AQSH va Yevropa davlatlarining ijtimoiy xizmatlaridagi farqni taqqoslama jadvali

Ko‘rsatkich	AQSH	Yevropa
Moliyalashtirish	Asosan xususiy sug‘urta	Davlat va majburiy sug‘urta
Sug‘urta olish imkoniyati	Sug‘urtaga bog‘liq	Har kimga ochiq
Xarajatlar	Juda yuqori	O‘rtacha
Tibbiy xizmat sifati	Yuqori texnologiyali, lekin tengsiz	Yaxshi sifatli va teng imkoniyatli

Manba: tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning aksariyat qismi AQSHda asosan xususiy sug'urta hisobiga amalga oshsa, Yevropa davlatlarining aksariyatida davlat va majburiy sug'urta hisobiga qoplanadi. Ijtimoiy sug'urtalarni olish imkoniyati AQSHda sug'urta kompaniyalariga bog'liq bo'lsa, Yevropa davlatlarida barchaga ochiq va soddalashtirilgan usulda olish mumkin. AQSHda ijtimoiy xizmatlar narxi juda yuqori bo'lsa, Yevropa davlatlarida o'rtacha. AQSHda tibbiy xizmatlar yuqori texnologiyali, sifatli lekin munosib holda narxlari qimmat, Yevropa davlatlarida esa yaxshi, sifatli va munosib holda arzonlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11-sentyabrda "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmonida (2023) mamlakatimizda aholi farovonligiga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilab berilgan. Ushbu strategiyada “Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash” (Lex.uz., 2023) deb ta'kidlanib, ushbu dasturda 2030 yilga qadar 5 bo'limdan iborat ijtimoiy xizmatlarning keng ko'lamli strategik rivojlanish yo'nalishlari belgilangan bo'lib ularning barchasi aholi farovonligiga qaratilgan.

Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy xizmatlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Ular orqali aholi ehtiyojlariga mos, insonparvar siyosat amalga oshiriladi. Har bir davlat ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish orqali aholining farovon hayot kechirishiga asos yaratadi. Shu boisdan, bu sohani isloh qilish, raqamlashtirish, inson resurslarini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar / Лумепамыпа/Reference:

- Gregory N. Mankiw. (2014) *Principles of Economics*, 7th edition. Amazon, USA,. – 880 p.
- Lex.uz. (2023). PF-158-сон 11.09.2023. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida. [online] Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
- McConnell, Brue. (2014) *Economics*. 19 th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA,. – 984 p.
- Paul A., Samuelson, William D. (2009) Nordhaus. *Economics*. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. – 744 p.
- Абдуллаев Ё.А. (2001) *Менежмент: дарслик*. – Тошкент. «Ўқитувчи».
- Абдурахмонов Қ.Х. (2011) *Меҳнат бозори назариясига янгича ёндашувлар // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 1, сентябрь, – Б.46-52. Iqtisodiyot.uz.*
- Абулқосимов Ҳ.П., Ашурова М.Х. (2015) *Меҳнат ресурслари ва улардан унумли фойдаланиш йўллари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 1. 52-57 б.*
- Галиахметова Л.И. (2015) *Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью: проблема взаимосвязи. – Вестник Башкирского университета. Т. 20. №.*
- Гойхман О.Я. (2007) *К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. №1. – С., 31-34.*
- Котлер Ф., Армстронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. (1999) *Основы маркетинга*. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», -718 с.
- Мак-Дональд М., Пэйн Э. (2009) *Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию*. –М.: КноРус, -448 с.
- Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар (2022) *Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, –251 б.*

Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. (2021) *Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». -186 б.*

Пардаев М.Қ. (2014) *Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, –264.*

Турсунов Ф.У. (June) *Хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли технологияларнинг аҳамияти. JMBM. Volume 1, ISSUE 4 ISSN: 2181-3000, 132-134 pages.*

Ўлмасов А, Вахабов А. (2006) *Иқтисодиёт назарияси. Дарслик, –Т.: Шарқ. – 432 бет.*

Уремина Е.Н. (2017) *Личностные характеристики как предикторы субъективного благополучия личности с разной ситуацией трудовой занятости. Иза. Саратов. Ун-та. Нов. Сер. Сер. Акмеология образование. Психология развития. Т. 6, вып. 1 (21).*